

SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 13 835 tani tashkil etdi, shundan 11 560 tasi yoki 83,6 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda).



Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	13 835	11 641	11 560
2025	11 879	9 837	9 763
2024	12 176	10 045	9 970
2023	13 339	11 212	11 151
2022	16 793	14 668	14 602

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Guliston shahrida – 23,9 foiz, Sirdaryo – 12,8 foiz, Sardoba – 8,9 foiz, Mirzaobod – 8,9 foiz va Boyovut – 8,9 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Yangiyer shahrida – 88,9 foiz, Sardoba – 88,4 foiz, Oqoltin – 87,1 foiz hamda Mirzaobod – 86,6 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Sirdaryo viloyati	13 835	11 641	11 560
<i>Tuman va shaharlar:</i>			
Guliston shahri	3 313	2 771	2 750
Yangiyer shahri	1 014	901	894
Shirin shahri	312	247	243
Boyovut tumani	1 235	991	985
Guliston tumani	1 049	880	878
Mirzaobod tumani	1 232	1 067	1 057
Oqoltin tumani	898	782	780
Sayxunobod tumani	892	713	710
Sardoba tumani	1 232	1 089	1 084
Sirdaryo tumani	1 770	1 511	1 494
Xovos tumani	888	689	685

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-sentabr holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida bo'lib, uning jami korxonalar sonidagi ulushi 29,7 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 17,7 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,6 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 57,0 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jami:	13 835	11 641	11 560
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 447	2 432	2 425
Sanoat	1 331	1 326	1 297
Qurilish	955	945	941
Savdo	4 114	4 114	4 104
Tashish va saqlash	317	315	313
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	892	891	890
Axborot va aloqa	277	265	264
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	349	189	183
Boshqa turlar	3 153	1 164	1 143

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 11 641 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 10 252 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

	2022	2023	2024	2025	2026
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 462	9 394	8 544	8 502	10 252
Xususiy korxonalar	2 447	1 308	993	906	935
Oilaviy korxonalar	361	245	302	268	291
Aksiyadorlik jamiyati	20	11	11	13	13
Boshqalar	378	254	185	148	150

Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 252	88,1
Xususiy korxonalar	935	8,0
Oilaviy korxonalar	291	2,5
Aksiyadorlik jamiyati	13	0,1
Boshqalar	150	1,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida, iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Guliston shahri – 21,4 foiz, Sirdaryo tumani 21,4 foiz, Yangiye shahri – 16,8 foiz va Mirzaobod tumani – 10,8 foizga to'g'ri keladi.


Hududlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Sirdaryo viloyati	351	106	245

Tuman va shaharlar:

Guliston shahri	75	16	59
Shirin shahri	18	3	15
Yangiye shahri	59	10	49
Boyovut tumani	23	2	21
Guliston tumani	9	3	6
Mirzaobod tumani	38	14	24
Oqoltin tumani	6	3	3
Sardoba tumani	10	5	5
Sayxunobod tumani	11	5	6
Sirdaryo tumani	75	36	39
Xovos tumani	27	9	18

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 351 ta korxonalardan 106 tasi qo'shma korxonalar va 245 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025- yilning mos davriga nisbatan 93 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 125 tadan 146 taga, (o'sish 21 taga), axborot va aloqa sohasida 29 tadan 47 taga (o'sish 18 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 30 tadan 37 taga (o'sish 7 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	351	106	245
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	37	13	24
Sanoat	146	54	94
Qurilish	13	4	9
Savdo	65	17	48
Tashish va saqlash	8	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	1	4
Axborot va aloqa	47	3	44
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	-	1
Boshqa turlar	29	10	19

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 146 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 41,6 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (10,5 %), Turkiya (7,4 %), Qozog'iston (6,6 %) va Tojikiston (6,3 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xitoy	146	36	110
Rossiya	37	11	26
Turkiya	26	7	19
Tojikiston	22	5	17
Qozog'iston	23	12	11
Afg'oniston	16	6	10
Qirg'iziston	8	3	5
BAA	11	3	8
Buyuk Britaniya	7	4	3
Janubiy Koreya	9	3	6
Ozarbayjon	6	3	3
Pokiston	4	1	3
AQSH	8	3	5

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
regisrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

A. Anorqulov
67 236-70-00 (2060)

Maznil:

120100, Guliston sh.,
Birlashgan ko'chasi, 62
